

1 This is not registered version of TotalDocConverter

Din ilmini bilsa kim shariat shuldir,  
Gar qo'shsa amal bilan tariqat shuldir.  
Kim ilmu amalni Haq rizosin istab,  
Ixlos ila jam etsa, haqiqat shuldir.

2

Ey, va'dani ko'p qilding-u, yo'q zarra vafo,  
Ko'rmaydi bu shevani vafo ahli ravo.  
Mayxona tavofidan biror naf' bormi?  
Din va shijoat bo'lmasa, yo'q sidqu safo.

3

Soqiy, bu kecha berma menga o'zga sharob,  
Xummor ko'zing qildi meni mastu xarob.  
Ko'zimni qorachiqlari tark ayladilar,  
Shundan bu kecha hamnafasim otashu ob.

4

Shu mulki olam ichida mavjud U,  
Har ikki jahonda maqsadu maqsud U.  
To bo'lmas ekan e'tiqod uyi vayron,  
Men fosh qilaman: sening uchun ma'bud U.

5

Men mazhari nutqu nutqi Haq zotim erur,  
Shu ikki jahonda mening isbotim erur.  
Tonggidan azalning to abad shomigacha  
Har narsa vujudga kelsa, zarrotim erur.

6

To bo'lmas ekan o'zlikdan foniyu fard,  
Butkul yuvilib ketmas ko'ngildagi gard.  
Bo'l nafsu havodan-u jahondan ozod,  
Qoch turfa yomonlikdan agar bo'lsang mard.

7

Dil dardisiz yetmaydi kishi darmonga,  
Xaq jazbasi bo'lmay, yetmagay Rahmonga.  
Yuzing seni Xaq rahmatining ko'zgusidir,  
Yetmas uni kim anglamasa Qur'onga.

8

Ul nuqtaki, markazi jahondir - sensan,  
Ul qatraki, asli kun-fayakondir - censan,  
Ul ismki, zotdan nishondir - sensan,  
Ul harfki, ismi bebayondir - sensan.

9

Menman lomakon ganji - makonga sig'mam!  
Yuksak bu ruhim - jism ila jonga sig'mam!  
Insondagi bor vahmu xayol menda esa,  
Bosmas vahima, aqli ayonga sig'mam!